

FOLKLOR JANRLARIDAGI RAMZLARNING O‘RGANILISHI
XUSUSIDA

Mohira Abduraxmonova

*O‘zR FA O‘zbek tili, adabiyoti va folklori
instituti tayanch doktorant*

Annotatsiya. Ushbu maqola ramz genezisiga bag‘ishlangan bo‘lib, ramzning folklorida o‘rganilish masalasini tadqiq etilgan. Shuningdek, folklor janrlarida ramz qadimdan qay tarzda uchrashiga diqqat qaratilib, namunalari asosida izohlanadi.

Kalit so‘zlar: folklor, ramz, xalq qo‘shiqlari, ertak, doston, maqol.

Adabiyotda sintezlashuv jarayoni muntazam davom etib kelmoqda. Ramzlarning qo‘llanish doirasi xalq og‘zaki ijodida yanada kengaydi. Ayniqsa, xalq qo‘shiqlarida inson tuyg‘ularini ifodalash uchun ramzlardan foydalanish qo‘l keladi. O‘zbek folklorshunosligida xalq qo‘shiqlaridagi ramzlar M.Alaviya, A.Musaqulov, A.Sharopov, M.Yoqubbekova, Sh.Turdimov, D.O‘rayeva, M.Ro‘ziyeva, Sh.Imomnazarova, N.Sabirova¹ kabi olimlarning tadqiqotlarida o‘rganilgan. Poetik ramzlarni nazariy planda jiddiy o‘rganish ishlari XX asrning 80-yillaridan boshlandi. Bu sohada fundamental tadqiqot sifatida Sh.Turdimovning “O‘zbek xalq lirik qo‘shiqlarida poetik ramzlar” mavzusidagi nomzodlik ishi bo‘lib, olim ramz tushunchasining adabiyotshunoslik va folklorshunoslikdagi ta‘rifiga to‘xtaladi. Shuningdek, poetik ramzlarning yuzaga kelishidagi asosiy omillar, uning o‘xshatish va metafora kabi ko‘chimlardan farqi, ramzning mif va parallellizm bilan aloqasi hamda ramzlarni “o‘zak” ramz va “vaziyat ramz”larga ajratish haqida asosli fikrlar bildiradi. Shuningdek, xalq qo‘shiqlarida uchraydigan o‘zak ramziy obrazlarni 9 ta tur (qushlar – turna, o‘rdak, qaldirg‘och, qarg‘a, g‘oz; hayvonlar – ilon, ot; narsa-buyumlar – do‘ppi, salla, telpak, oyna, ro‘mol, soch, chilik, xol, qoshiq; o‘rin-joy – bozor, bog‘, imorat, tom; mevali daraxtlar – anjir, anor, jiyda, olma, tut, shaftoli; mevasiz daraxtlar – gul, chinor, terak, tol; tabiat unsurlari – daryo, suv, tosh, tog‘, yulduz, sunbula; rang – alvon, bo‘z, oq, sariq, qizil, qora; kasb-hunar – bog‘bon)ga bo‘ladi².

¹ Алавия М. Ўзбек халқ кўшиқлари. – Т.: “Фан”, 1959; Мусақулов А. Ўзбек халқ лирикасининг тарихий асослари: ф.ф.д. дисс. автореф. – Т., 1995; Шу муаллиф. Ўзбек халқ лирикаси. – Т.: “Фан”, 2010. – 306 б.; Шаропов А. Оламлар ичра оламлар. – Т.: “Адабиёт ва санъат”, 1978; Ёқуббекова М. Ўзбек халқ кўшиқларининг лингвопоэтик хусусиятлари. – Т.: “Фан”, 2005; Турдимов Ш. Поэтические символы в узбекских народных лирических песнях. АКД. – Т., 1987; Шу муаллиф: Халқ кўшиқларида рамз. – Т.: “Фан”, 2020. – 192 б.; Ўраева Д. Ўзбек халқ лирик кўшиқларида параллелизм ларнинг характери ва бадий-композицион вазифалари: ф.ф.н. дисс. автореф. – Т., 1993. – 20 б.; Шу муаллиф. Ўзбек мотам маросими фольклорининг генезиси, жанрий таркиби ва бадиияти: ф.ф.д. дисс. автореф. – Т., 2005. – 35 б.; Рўзиева М. Ўзбек халқ кўшиқларида ранг символикаси: Филол.фан. бўйича фалсафа доктори (PhD) дисс... автореф. – Т., 2017. – 46 б.; Имомназарова Ш. Ўзбек фольклорида ўлан жанри (ўзига хос хусусиятлари, генезиси ва бадиияти): Филол.фан. бўйича фалсафа доктори (PhD) дисс... автореф. – Т., 2017. – 55 б.; Сабирова Н. Хоразм халқ лирик кўшиқларида поэтик рамзлар тизими ва уларнинг бадий-эстетик вазифалари: Филол.фан. бўйича фалсафа доктори (PhD) дисс.– Т., 2018. – 156 б.

² Турдимов Шомирза. Халқ кўшиқларида рамз. – Т.: “Фан”, 2020. – Б. 114-134.

Folklordagi ramzlar, ko‘proq an‘anaviyligi bilan xarakterlanadi. Shuning uchun ham ular ijrochi va tinglovchiga mazmunan tanish bo‘ladi. Ammo an‘anaviylikda primitivlikni ko‘rmaslik lozim. Har bir ramz konkret matnda o‘zining yangi semantik qatlamlarini namoyon qiladi. Folklorda yangi ramzlarning paydo bo‘lishi asta-sekinlik bilan kechadi. Xalq og‘zaki ijodida muayyan bir ijodkorga tegishli individual ramz mavjud emas. An‘anaviylik, ommaviylik, bir jarnga doir asarlar doirasida turg‘un ma‘no kasb etish kabi xossalar folklordagi ramzlarning asosiy belgisidir.

N.Sabirova “Xorazm lirik qo‘shiqlarida poetik ramzlar tizimi va ularning badiiy estetik vazifalari”³ nomli dissertatsiyasida poetik ramzlarning genezisiga alohida yondashib, dastlab belgi, tamg‘a ma‘nosini ifodalagan poetik ramzlarning mohiyati ko‘p tomonlari bilan marosim va urf-odatlar bog‘lanib ketishini ta‘kidlaydi va marosim hamda urf-odatlar qanchalik qadimiy bo‘lsa, ramzlarning ibtidosi ham shunchalik qadimiydir, degan xulosaga keladi. Darhaqiqat oila, muhabbat, hijron, ota-ona mavzusini yoritishda xalq qo‘shiqlaridagi ramzlarning ma‘nosini anglamaslik, ularni qofiyabozlik deya jo‘n tushunishga olib keladi. Bir qaraganda, bir-biri bilan aloqasi bo‘lmagandek tuyulgan hodisalardan ramz qatiga yashiringan ma‘no kalitini topa olsakkina, bu yaratilgan ajdodlarimizning bizdan ko‘ra shoirroq ekanligiga guvohlik beradi. Masalan, “Olma otdim otganga”, deyilgan misra mag‘zida, meni sevganni sevdim, degan iqrar mujassam. “To, yog‘ochni o‘tga soldim, men uni kuymas dedim” satrlarida lirik qahramonning, meni sevaman degan yigitni sinab ko‘rdim, deb chekkan iztirobi o‘z ifodasini topgan. Xalq qo‘shiqlarida olma – sevgi, farzand; shaftoli – o‘tkinchi muhabbat; tol – yigit; g‘oz – xushxabar; o‘rdak – tuhmat, shumxabar va hokazo tub o‘zak ramziy ma‘nolarga ega⁴. Xalq qo‘shiqlaridagi ramz ma‘nosini topa olsak, xalqona tafakkur xazinasini ochamiz, ajdodlarimizning poetik mahoratiga hayratimiz ortadi.

Ertaklardagi ramzlar mifdagi ramzlarning sayqallangan, bir muncha shakllangan ko‘rinishidir. Dev, pari, ajdarho, yalmog‘iz, suv parisi kabi tasavvuriy obrazlar mifdan folklorga ko‘chib o‘tgan. Ular ertakda dramatismni hosil qilishi bilan birga, ramziy yuk tashiydi. Shuning uchun ertakdagi voqealar ikki xil ma‘no kasb etadi: sirtqi va ichki. Sirtqi ma‘no ertakdagi hayotiy-maishiy mazmun bo‘lib, ichki ma‘no voqelikka singdirilgan ramzlar ma‘nosidir. Folklorshunos Sh.Turdimov “Cho‘loq bo‘ri” ertagidagi ramzlarni tadqiq etar ekan, undagi podsho – ruh, tana, jonni birlashtiruvchi inson timsoli; uch aka-ukalar – insonning ruhiy olami, ongida kechuvchi murakkab kamolot bosqichlarining ramziy-timsoliy ifodasi; bog‘ – insonning ko‘ngil ravzasi; tilla bargli chinor – ruhiy quvvat ramzi; tilla qush – ruhiy

³ Sabirova N. Хоразм халқ лирик қўшиқларида поэтик рамзлар тизими ва уларнинг бадий-эстетик вазибалари: Филол.фан. бўйича фалсафа доктори (PhD) дисс.– Т., 2018. . – Б. 40.

⁴ Turdimov Sh. “O‘chmas sira donish chirog‘i”. Maqola. Ziyouz.com.

bilim timsoli⁵ deb izohlaydi. Ertakdagi uch aka-uka va ular tanlagan “borsa kelar”, “borsa xatar”, “borsa kelmas” yo‘llar ramziy ma’noga ega ekanligini J.Eshonqul insondagi tajriba (katta aka obrazi), imkoniyat (o‘rtancha botir obrazi) va istak (kenja botir obrazi) deb baholaydi. J.Eshonqul aka-ukalar va yo‘l timsoliga tasavvufiy yondashib, kenja botirning “borsa kelmas” yurtiga yuz tutishini, sarguzashtlari, mashaqqatlari va murod-maqsadiga erishuvini tasavvufning kamolot bosqichlariga o‘xshatadi. Katta akaning tanlagan yo‘li nafs ramzi, o‘rtancha botirning tanlagan yo‘li aql ramzi, kenja botir tanlagan yo‘li ilohiyot yo‘li ramzidir⁶, deb xulosa beradi. Har qanday ramzning ma’nosini ochishda matndan uzoqlashmaslik va yaratilgan davr hisobga olinishi lozim. Xalq ertaklari esa qachon yaratilganligini aniqlash amri mahol. Ertakdagi ramzlarga tasavvufiy yondashish ramzlarning ma’nosini to‘la ochgandek tuyulsa ham, har bir davr matndan, davr kishisi dunyoqarashidan kelib chiqqan holda ramz ma’nosini yangi-yangi kalitlar bilan ochishga imkon beradi. Ertaklar ma’lum xalqqa tegishli bo‘lsa-da, ularda umuminsoniy muammolar va ularning yechimi ramziylashtiriladi. Shu ma’noda, ertaklardagi ramzlar tagida milliy an’ana va qadriyatlar bilan birga, butun insoniyatga tegishli universal masalalarni ham izlash ramzlarning ma’nosini to‘g‘ri anglashga yordam beradi. Bizningcha, ertakdagi yo‘l – insonning bu olamdan u olamga safari ramzi. Aka-ukalar uchta yo‘lning qarshisidan chiqishi inson istaklardan iboratligi, mudom tanlovlar qarshisida ekanligiga ramziy ishora, nazarimizda. Hayot ekanmiz, istaymiz va tanlaymiz va tanlov mevasini totamiz. Umr yo‘limizdagi har bir daqiqa – tug‘ilganimizdan tortib vafotimizga qadar nimanidir istash va qarshimizdagilardan birini tanlashlardan iborat. Odam yaratilgandan beri butun insoniyat istak – tanlov – natija formulasiga bo‘ysunishga mahkum. Istak va tanlovlarimiz esa bizni ertakdagi uch yo‘lning oxiri singari natijaga olib boradi. Bu istak orqali nafsning xohishiga yurishimiz, aqlning tanlovini qabul qilishimiz yoki ruhimizning poklanish ehtiyojiga bo‘lgan istagini qabul qilishimiz xuddi uch aka-ukaning “borsa kelar”, “borsa xatar”, “borsa kelmas” kabi uch yo‘ldan birini tanlashiga o‘xshaydi. Jismimiz nafsga, aqlimiz mantiqqa, ruhimiz esa kamolotga tomon intiladi. Har bir tanlovimiz yo jismoniy yo aqliy yo ruhiy istaklarga suyanadi. Ularning qay birini tanlash uch aka-uka singari o‘zimizga bog‘liq. Ertakda esa tanlovning natijalari haqida ochiq-oydin yakun berilgan. Hazrat Rumiyo umr falsafasini anglab, nafsga qul jism istagini, mantiqqa tobe aql istagini rad etish ilinjida “Istamaslikni istayman” degan bo‘lsa ne ajab?! “Borsa kelmas” deb atalgan qalb pokligi, ruhiy kamolot yo‘lini istagan Kenja botir faqat ertakdagi qahramongina emas, u ajdodlarimiz misolida bor bo‘lgan, bugun ham hayotimizda,

⁵ Turdimov Sh. Borsa kelmasdagi xazina. Maqola. Tafakkur, 2015. 3-son.

⁶ Eshonqul J. Folklor: obraz va talqin. Qarshi, “Nasaf”, 1999. 73-78-b.

yon-atrofimizda mavjud bo‘lgan insondir. Ertaklar har doim ezgulikning yovuzlik ustidan qilgan g‘alabasi bilan yakunlanadi. Ertak syujetida, umumiy aspektdan olib qaralganda, qahramonlar ezgulikka xizmat qiladigan va yovuzlikka xizmat qiladigan obrazlar ko‘rinishida ramzlashib qolgan. Deylik, yalmog‘iz, dev, ajdaho yovuzlikning, pari, suv parisi, oltin baliq, uchar gilam, ot kabilar ezgulikning timsoli bo‘lib turg‘unlashgan. Yakunda esa ezgulik qahramonlari g‘olib kelishi dunyoda barcha yaxshi-yomonlikning jazo-mukofoti borligiga ishoradir. Bola bu ertakni eshitganda uning ramziy ma’nosini tushuna olmaydi, albatta. Ammo Kenja botir kabi yo‘l tutish ezgulikka olib borishini, hayotda ezgulikning g‘alabasi muqarrarligini, barkamollik sari yetaklaydigan maqsadlar sari harakat qilish kerakligini his etadi.

Badiiyatda hayvonlarning qahramon sifatida olinishi majoziy ma’noga ega bo‘lib, ayrim majoziy obrazlar yillar davomida turg‘unlashib ramzga aylanadi. Ertaklarda tulki doimo ayyor, bo‘ri ovsar, ayiq laqma, eshak befarosat, quyon epchil va chaqqon, toshbaqa imillagan, chumoli mehnatkash, qarg‘a shum xabar yetkazuvchi sifatida tasvirlanadi. Folklordagi majoziy obrazlarning ramzlashuvi majoziy qoliplarni yuzaga keltirgan. Ertaklarda ulardan tayyor holda foydalaniladi. Shuningdek, nutqiy vaziyatlarda ham insonlarga nisbatan “tulki”, “quyon”, “echki”, “eshak”, “toshbaqa” tipidagi leksemalar qo‘llaniladi.

Xalq ertaklarining har birida qat-qat ma’no mujassam, ular alohida-alohida tadqiqotlarni talab qiladi. Aytish mumkinki, ertaklar shunchaki bola uxlashi uchun to‘qib chiqarilgan voqealar rivoji emas, balki unda xalqning qadim an’analari, orzu-umid, ishonchi, urf-odatlaridan suv ichgan e’tiqodi, tafakkur tarzi, qarashlari ramz va timsollar qatiga singdirib yuborilgan bo‘lib, ular ruhiyatimizning ezgu istaklarini uyg‘otishga xizmat qiladi.

Xalq og‘zaki ijodi namunasi bo‘lgan dostonlar ham ramzlarning eng qadimlarini o‘zida jamlagan. Dostonlarda ko‘p uchraydigan obrazlardan biri otdir. Professor Hodi Zarif haqli ravishda ta’kidlaganidek, “dostonlarda ot juda muhim o‘rin egallaydi. U qahramonning muvaffaqiyatga erishuvi yo‘lida xizmat qilib, g‘oyat mushkul vazifalarni bajaradi... Qahramon otga ega bo‘lganligi tufayli istagiga erishadi. Shu narsa xarakterliki, epik ot qatnashmagan bironta qahramonlik dostonini topish qiyin. Ot qahramonning safari va kurashlarida doimiy yo‘ldoshi, ishonchli qo‘ldoshi va yaqin do‘stidir”⁷. Darhaqiqat, dostonlarda epik qahramon chorasiz qolganda uni ot qutqaradi, alpligini namoyon qilishdagi safarda ot hamroh bo‘ladi. Otlarni alohida tadqiq qilgan folklorshunos A.Tilovov xalqimizning “ot –

⁷ Зарифов Х.Т. Ўзбек халқ дostonларининг тарихий асослари бўйича текширишлар. Жанговар отнинг қадимий асосларига доир // Ўзбек халқ оғзаки ижоди бўйича тадқиқотлар. 4-китоб Пўлкан шоир. – Тошкент: Фан, 1967. – Б. 65.

murod”⁸ degan xulosasini ta’kidlaydi. Bizningcha ham, dostonlardagi ot obrazi epik qahramonning murod-maqsadiga eltuvchi kuch, o’rni kelganda, do’st-yor, yo’ldosh, ishonch, suyanch, qahramonlik kabi ramziy ma’nolarni o’zida birlashtiradi. Qultoyning “Saman soriga tush, yo olapacha to’riga tush, shapaqning zo’riga tush” deb ot tanlashi, alplar musobaqasida Barchinoy yiroqdan “Qurruyo-qur, hayt-a, to’ramning oti” deya otga ruhan dalda berishi, Alpomishni chohdan ot qutqarishi bejizga emas. Qultoy to’g’ri kelgan otni to’rasiga ravo ko’ravermaydi, maqsadga eltadigan, alpga har damda ko’mak bo’ladigan ot izlaydi, Barchinoy to’rasi g’olib bo’lishi tulporning kuchiga bog’liqligini, u imkonsizlikdan olib chiqa oladigan kuchga egaligini tuyib, unga kuch berishini yolvoradi, Alpomish esa o’zini chohdan qutqarganiga minnat qilmaydigan do’st – otga suyanadi. Dostondagi otlarni sirtmoq otib tanlash, otni tekshiradigan sinchilar, ilojsiz qolgan qahramonning otni chaqirib, u orqali mushkulotdan qutulishi, otlarning uchishi kabi tulporlar bilan bog’liq epizodlar nihoyatda ko’p. Tulporlarning nomlanishida “ko’k”rangga egalik jihatiga diqqat qaratish ham alohida mazmunga ega. Folklorshunos A.Tilovov tadqiqotlarida ko’k rang faqat otning ranginigina ifodalamasligi, “ot-ko’k” detali Ko’k-Tangri inonch-e’tiqodining xalq og’zaki ijodidagi tajalliysi ekanligini “G’o’ro’g’li” turkumi dostonlarida mifik G’irotning “G’irko’k”, “Ko’kg’irot” deb atalishi⁹ bilan dalillaydi. Turkiy xalqlarda ko’k rang go’zallik ramzi va qadim ajdodlarimiz e’tiqod qilgan Ko’k Tangrining samoviy rangi tarzida talqin qilinadi. Ya’ni ko’k rang o’zida samoviylik, ilohiylikni mujassamlashtirgan. Murodga eltuvchi otlarning samoviy, ilohiy sifatida tasavvur etilib, “ko’k” so’zining qo’shib nomlanishi shundan. Epik qahramonga suyanch, ishonch bo’lgan ot obrazining ramziy ma’nolari ko’k rang ramzi bilan birlashib, xalqda otga nisbatan ilohiy yo’ldosh ma’nosidagi ramziy obraz tasavvurini berdi.

Nafaqat ko’k rang, balki 18 ming olamni jilolantirishga xizmat qiladigan ranglar qadimdan ramziy mazmunga ega deb qaralgan. Masalan, miflarda asosan, qora, oq, qizil ranglar ramzlashtirilgan bo’lsa, xalq og’zaki ijodi namunalari – qo’shiq, maqol, ertak, dostonlarda boshqa rang turlari ham ramziylashdi. Adabiyotshunos N.Jumatova oq, qizil, qora, yashil, ko’k, sariq ranglarning ramziy ma’nolarini tadqiq etdi¹⁰.

Ramzlarning eng muhim xususiyatlaridan biri fikrni qisqa, lo’nda ifodalashdir. Xalq maqollaridagi ramzlar qisqa so’zlarda keng ma’no ifodalay olishning eng aniq ko’rinishidir. Maqollarning ko’chma ma’noga ega bo’lishi metaforik ramzni yuzaga keltiradi. Ya’ni bunday maqollarda metaforaga xos o’xshatish va ramzga xos

⁸ Тилавов А. От образи: тарих, таҳлил ва талқин // Монография. – Т., 2018. – Б. 5.

⁹ Тилавов А. От образи: тарих, таҳлил ва талқин // Монография. – Т., 2018. – Б. 43-44.

¹⁰ Жуматова Н. Ҳозирги ўзбек шеърлятида ранг билан боғлиқ рамзий образлар. Фил.фан.ном...дисс. – Т.: 2000. – 113 б.

ko‘chma ma’no birlashib, majoziy ma’no kasb etadi. Masalan, “Otning yag‘iri toyga qolar” degan maqolda “ot” so‘zi qarindosh-urug‘chilikdagi katta avlod vakili ramzi bo‘lib, maqolda ota-bobolarning yaxshi-yomon xislati bolaga o‘tadi, degan mazmun metaforik yo‘lda aytilmoqda. “Yomon it egasini qopar” maqolida esa it ko‘rnamak inson ramzi bo‘lib, majoziy ma’noda yaxshilikni unutadigan kimsalarning harakati itning qopishiga o‘xshatilmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Eshonqul J. Folklor: obraz va talqin. Qarshi, “Nasaf”, 1999. 73-78-b.
2. Жуматова Н. Ҳозирги ўзбек шеърлятида ранг билан боғлиқ рамзий образлар. Фил.фан.ном...дисс. – Т.: 2000. – 113 б.
3. Сабирова Н. Хоразм халқ лирик кўшиқларида поэтик рамзлар тизими ва уларнинг бадий-эстетик вазибалари: Филол.фан. бўйича фалсафа доктори (PhD) дисс.– Т., 2018. . – Б. 40.
4. Тилавов А. От образи: тарих, таҳлил ва талқин // Монография. – Т., 2018. – Б. 43-44.
5. Turdimov Sh. Borsa kelmasdagi hazina. Maqola. Tafakkur, 2015. 3-son.
6. Turdimov Sh. “O‘chmas sira donish chirog‘i”. // Maqola.
7. Турдимов Шомирза. Халқ кўшиқларида рамз. – Т.: “Фан”, 2020. – Б. 114-134.
8. Зарифов Ҳ.Т. Ўзбек халқ дostonларининг тарихий асослари бўйича текширишлар. Жанговар отнинг қадимий асосларига доир // Ўзбек халқ оғзаки ижоди бўйича тадқиқотлар. 4-китоб Пўлкан шоир. – Тошкент: Фан, 1967. – Б. 65.